

CHET TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR
VA JAHON TAJRIBASI**Charos Raxmidinovna Choriyeva,**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Muslima Maxmudovna Bazarova,

O'zDJTU, O'zbekiston tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati hamda jahon tajribasi o'rganiladi. Bugungi global davr talablaridan kelib chiqqan holda, chet tillarini o'rganish va o'rgatishning samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kreativ metodlar va texnologik vositalardan foydalanishning o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, jahon tajribasi, kommunikativ yondashuv, Finlandiya modeli, sun'iy intellekt.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается важность инновационных подходов и мирового опыта преподавания иностранных языков. Исходя из требований современной глобальной эпохи, анализируется роль использования современных педагогических технологий, творческих методов и технологических инструментов в повышении эффективности изучения и преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: Цифровые технологии, геймификация, мировой опыт, коммуникативный подход, финская модель, искусственный интеллект

ABSTRACT. This article examines the importance of innovative approaches and world experience in teaching foreign languages. Based on the requirements of today's global era, the role of using modern pedagogical technologies, creative methods and technological tools in increasing the effectiveness of learning and teaching foreign languages is analyzed.

Keywords: Digital technology, gamification, world experience, communicative approach, Finnish model, artificial intelligence

Dolzarbliigi: Bugungi globallashuv davrida chet tillarini bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tilini bilish orqali inson o'z dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Shu sababli chet tilini o'qitish va o'rganish muhim jarayon hisoblanadi. Hozirgi paytda zamonaviy texnologiyalar va metodik yondashuvlar rivoji til o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Chet tilini o'qitish dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, u jahon sivilizatsiyasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham chet tillarini o'qitishga bo'lgan talab va e'tibor kuchaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1875-sonli qarorning qabul qilinishi mazkur masalaning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi. Qaror qabul qilingach yurtimizda chet tilini o'qitish borasida keng islohotlar o'tkazala boshlandi. Oliy ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, o'qitishning innovatsion shakllari va usullari amaliyotda qo'llanilmoqda. Bu esa, odamlarga chet tillarini tezroq va samaraliroq o'rgatishga qulay imkoniyat yaratmoqda. Aniqroq qilib aytganda, turli xil metodlar va kreativ yondashuvlar yangi talqinda olib borilib, chet tillarini o'rganish qisqa fursatda amalga oshirilmoqda.

Metodlar: Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ob'ektivlik, ilmiylik, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Muhokama va natijalar: Hozirgi, ayni zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bir paytda, chet tillarini o'rgatish oson jarayonga aylanmoqda. Tobora rivojlanib borayotgan sun'iy Intellekt yordamida til o'rganuvchilar o'zlariga zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni olishi mumkin. Sun'iy

intellektdan nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar ham foydalanib, til o'rgatishning yangidan yangi metodlarini kashf qilishlari mumkin. Bundan tashqari, turli o'qitish metodikalari ham mavjud.

Ulardan biri gamifikatsiya usuli hisoblanadi. Bu usul kompyuter programmisti Nick Pelling tomonidan 2003-yilda kashf qilingan. U kompyuter qattiq va yumshoq disklari ustida ishlayotgan bir paytda ularni qiziqarliroq qilish maqsadida bu usulni ishlab chiqadi. Gamifikatsiya (inglizcha: gamification) – bu o'yin mexanikalarini va elementlarini, o'yinlar bo'lmagan faoliyatlar yoki jarayonlarga qo'llash jarayonidir. Aslida, gamifikatsiya o'yinlarda ishlatiladigan usullarni, masalan, mukofotlar, ballar, raqobat va yutuqlarni, odamlarni maqsadlarga erishishga, vazifalarni bajarishga yoki biror faoliyatni bajarishda motivatsiya qilish uchun boshqa sohalarga tatbiq etishdir. Chuqurroq qilib aytganda, gamifikatsiya usuli tillarning ayni bir aspektlari uchun juda zarur usul hisoblanadi, misol tariqasida grammatika olinsa, ko'pchilik bolalar uchun grammatika juda qiyin va zerikarli til aspekti bo'lganligi tufayli uni gamifikatsiya yordamida o'rgatish yaxshiroq natija beradi. O'qitish jarayonida texnologiyalarni qo'llash ham samarali usullardan biri bo'ladi. Masalan, duolingo, memrise Babel kabi dasturlar yordamida o'quvchilar mustaqil ravishda til o'rganishlari mumkin. Yana bir kreativ yondashuvlardan biri bu – Kognitiv yondashuvdir. Kognitiv yondashuv (Cognitive Approach) chet tillarni o'qitishda inson miyasining axborotni qayta ishlash qobiliyatini inobatga oladigan ta'lim usulidir.

Ushbu yondashuv til o'rganish jarayonini faqatgina mexanik yodlash bilan cheklamay, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va til tuzilmasini tushunishga asoslanadi. Bu yondashuv bir necha asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Birinchi tamoyil – axborotni qayta ishlash. Bu tamoyilda o'quvchilar ma'lumotni o'rganib, uni tahlil qiladi, qayta ishlaydi va tushunishga harakat qiladi. Tilni mantiqiy qoidalar asosida tushunish jarayoniga e'tibor qaratiladi. Ikkinchi tamoyil – Ijtimoiy va kontekstual o'rganish. Bu jarayonda o'quvchilar tilni ijtimoiy muloqot jarayonida va kontekst asosida o'rganadi, ya'ni odamlar o'rtasidagi muloqot chet tilini yanada ko'proq mashq qilish va uni yaxshilashga yordam beradi. Uchinchi tamoyil – metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish. Metakognitiv ko'nikmalar o'z-o'zini nazorat qilish, o'rganishning samaradorligini oshirish va yangi bilimlarni samarali egallash uchun zarurdir. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish, odamlarning o'z bilimlarini yaxshilashga va har xil vaziyatlarda samarali ishlashga yordam beradi. Ushbu tamoyillar til o'rganuvchilarga nafaqat til o'rganishda, balki boshqa sohalarda ham juda kerakli va samarali hisoblanadi. Yana bir o'qitish va o'rganish usuli sifatida internet platformadagi Lingbe, Hello talk kabi kommunikativ dasturlar til o'rganuvchilarga haqiqiy chet el muhitini yaratib berishga yordam beradi. Til o'rganuvchilari faqat til bilimlarini rivojlantiribgina qolmay, madaniy kompetensiyalar almashinuvini ham kashf etmoqda. Bu esa millatlararo hamjihatlik va do'stlik tuyg'usini uyg'otadi.

Chet tilini o'qitishda jahon tajribasini o'rganish natijasida O'zbekiston ta'lim tizimiga Finlandiya modeli kirib kelmoqda. O'zbekistonda so'nggi vaqtlarda ta'limning finlyandcha tajribasi haqida yuqori minbarlardan turib ko'p gapirilmogda. Dastlab Sirdaryo viloyatiga tashrifi vaqtida prezident Shavkat

Mirziyoyev boshlang'ich maktablar uchun "Finlyandiya standartlari" asosida darsliklar ishlab chiqilishini ta'kidlab, bu qarorni "Finlyandiya xalq ta'limi Yevropada va umuman butun dunyoda raqobatbardosh ekani" bilan izohladi.

Xulosalar. Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'rganuvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va nutq jarayonini yaxshilashga katta yordam beradi.

Bunday usullar va o'yinlar o'rganuvchilarning tilga bo'lgan ishtiyoqlarini uyg'otadi va o'quvchini darslarga puxta tayyorgarlik ko'rish va ularni yaxshi o'zlashtirishga undaydi. Chet tilini o'qitish jarayonida jadvallar va turli xil gamifikatsiyalardan foydalanish grammatik muammolarga eng to'g'ri yechim hisoblanadi. Chet tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kuchaygan bir davrda, zamonaviy axborot texnologiyalar rivoji til o'rganishni yangi bir pog'onaga olib chiqdi va bu jarayonni ancha samaraliroq qildi. Innovatsion texnologiyalar va ilmiy metodlarning unumdorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. <https://lex.uz/docs/-2126032>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-til-oqitish-metodikasida-zamonaviy-metodlar>
3. <https://gamify.outfieldapp.com/gamification/business/sales/learning/whos-the-father-of-gamification>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_tilshunoslik#Kognitiv_tilshunoslikning_shakllanishi_va_rivojlanish_tarixi
5. Djumali Shabanov “Chet tilini o‘qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari”
6. Joan Kelly Hall “Methods for teaching foreign languages”